# MARKETPLEYS OPERATORINING XARIDOR OLDIDAGI JAVOBGARLIGINI SHARTNOMA ORQALI ISTISNO QILISH MUAMMOSI

**Botirova Nazokat Bahromovna**
Toshkent Davlat Yuridik universiteti
Biznes huquqi yo'nalishi magistri
Email: botirovan186@gmail.com

**Annotatsiya:** Maqolada "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonunning 2026-yil 12-dekabrdan kuchga kiradigan tahririda marketpleys operatorining xaridor oldidagi subsidiar javobgarligi qanday mustahkamlangani tahlil qilingan. Muallif normadagi "shartnoma shartlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa" degan izoh operatorga o'z ommaviy ofertasi orqali javobgarlikdan qutulish imkonini berishini asoslaydi. Bunday band qonunning o'zi ruxsat bergan shart bo'lgani uchun Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun asosida ham haqiqiy emas deb topilmaydi. Xulosalar Raqobat qo'mitasining onlayn savdo bo'yicha amaliyoti, Vazirlar Mahkamasining 2016-yildagi qarorlari hamda Yevropa Ittifoqi, AQSh, Rossiya va Xitoy sud amaliyoti bilan qiyoslab tekshirilgan. Qonunning 12 va 13-moddalariga hamda qonunosti hujjatlariga o'zgartishlar taklif etilgan.

**Kalit so'zlar:** marketpleys, elektron tijorat operatori, subsidiar javobgarlik, ommaviy oferta, iste'molchi huquqlari, javobgarlikni istisno qiluvchi shartlar.

**Abstract:** The article examines the subsidiary liability of marketplace operators to buyers under Article 12 of Uzbekistan's Law "On Electronic Commerce" as amended with effect from 12 December 2026. The author argues that the proviso "unless the contract provides otherwise" lets the operator escape liability through its own public offer, and that such a term cannot be invalidated under the Consumer Protection Law because the statute itself permits it. The findings are tested against the practice of the Competition Committee, Cabinet of Ministers resolutions of 2016 and case law from the EU, the US, Russia and China. Amendments to Articles 12 and 13 of the Law and to secondary legislation are proposed.

**Keywords:** online marketplace, e-commerce operator, subsidiary liability, public offer, consumer rights, exclusion clauses.

O'zbekistonda onlayn savdo so'nggi yillarda tez o'sdi va 2025-yil oxiriga kelib bozor hajmi qariyb 23 trillion so'mga yetdi[1]. Bozor bilan birga nizolar ham ko'paydi. Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasiga 2025-yilda elektron tijorat bo'yicha 3 100 ga yaqin murojaat kelib tushgan bo'lsa, ularning yarmidan ko'pi Uzum

[1] O'zbekistonda onlayn xaridlar yangi bosqichga ko'tarilmoqda // Gazeta.uz. 23.10.2026. URL: https://www.gazeta.uz/oz/2026/10/23/uzum-market/

Market va Uzum Nasiya xizmatlariga tegishli bo‘lgan. Qo‘mita ko‘rsatmalaridan keyin xaridorlarga 7,3 mlrd so‘m qaytarilgan[2].

Marketpleysda xarid qilgan odam uchun eng noqulay holat sotuvchi talabni bajarmaganda yoki uni umuman topib bo‘lmaganda yuzaga keladi. Xaridor tovarni platforma ilovasida tanlagan, pulni platformaga to‘lagan va tovarni ko‘pincha uning yetkazib berish xizmati orqali olgan. Shunga qaramay amaldagi qonunga ko‘ra elektron tijorat operatori elektron hujjatlar va xabarlar mazmuni bilan bog‘liq oqibatlar uchun javob bermaydi, tovar sifati va pulni qaytarish majburiyatlari esa faqat sotuvchiga yuklangan[3].

Qonun chiqaruvchi 2026-yil 10-sentabrdagi O‘RQ-1173-son Qonun bilan bu holatni o‘zgartirib, operatorning subsidiar javobgarligini joriy etdi[4]. Biroq yangi norma “shartnoma shartlarida yoki qonunchilikda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa” degan izoh bilan berilgan. Xaridor bilan shartnomani operatorning o‘zi ommaviy oferta shaklida tayyorlashini hisobga olsak, bu izoh yangi kafolatning taqdirini operatorning o‘ziga topshirib qo‘yadi. Tadqiqotning maqsadi mazkur izohning iste’molchi himoyasiga ta’sirini amaliyot va xorijiy tajriba asosida baholash hamda qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Milliy huquqshunoslikda elektron tijorat ko‘proq umumiy masalalar doirasida o‘rganilgan. A. Rozmetova raqamli savdoning huquqiy tabiatini tahlil qilib, uning ishtirokchilari maqomidagi noaniqliklarga e’tibor qaratadi[5]. Elektron tijoratda iste’molchilarni himoya qilishga bag‘ishlangan ishlarda platformalarga oid shikoyatlar o‘sib borayotgani qayd etiladi, ammo operator javobgarligining huquqiy konstruksiyasi alohida tahlil qilinmaydi[6]. O‘RQ-1173-son Qonun yaqinda qabul qilingani sababli undagi subsidiar javobgarlik normasi hali ilmiy tahlil obyekti bo‘lmagan.

Xorijiy adabiyotda bu masala ancha keng muhokama qilinadi. N. Zubarev Rossiyada 2025-yilda qabul qilingan platforma iqtisodiyoti to‘g‘risidagi qonunni savdoni raqamlashtirishga javob sifatida baholab, uning ayrim qoidalarini qayta ko‘rib chiqish zarurligini yozadi[7]. Xitoy tajribasiga bag‘ishlangan tadqiqotda platforma operatori o‘z

---

[2] Маркетплейсы вернули покупателям 7,3 млрд сумов по предписаниям Комитета по конкуренции // Spot.uz. 11.02.2026. URL: https://www.spot.uz/ru/2026/02/11/e-commerce-complaint

[3] “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 29.09.2022, O‘RQ-792, 11, 12-moddalar. URL: https://lex.uz/docs/6213382

[4] O‘zbekiston Respublikasining 10.09.2026 yildagi O‘RQ-1173-son Qonuni, 2-moddasi (12-moddaning beshinchi va oltinchi qismlari). URL: https://lex.uz/docs/8468724

[5] Розметова А.А. Legal nature of digital commerce // Oriens. С. 644-654. URL: https://oriens.uz/media/journalarticles/91_Розметова_Асаль_Анварзода_644-654.pdf

[6] Legal protection of consumers in e-commerce: modern challenges and development prospects // Жамият ва инновациялар. URL: https://inscience.uz/index.php/socinov/article/download/6666/6537/20178

[7] Зубарев Н.С. Федеральный закон «Об отдельных вопросах регулирования платформенной экономики в Российской Федерации» как ответ на вызовы цифровизации торговли // Вестник Университета имени О.Е. Кутафина (МГЮА). 2026. № 2. С. 156-163. URL: https://vestnik.msal.ru/jour/article/download/2992/3022

platformasidagi savdo qoidalarini belgilovchi alohida bozor subyekti sifatida tavsiflanadi[8]. Bu fikr biz ko‘rayotgan muammoni yaxshi tushuntiradi, chunki savdo qoidalarini o‘zi yozadigan subyekt o‘z javobgarligi chegarasini ham shu qoidalar orqali belgilashga harakat qiladi.

Tadqiqotda formal-yuridik, tizimli va qiyosiy-huquqiy usullardan foydalanildi. “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonunning 12-moddasi amaldagi va yangi tahrirlarda, Vazirlar Mahkamasining 2016-yildagi 185 va 249-son qarorlari bilan birga o‘rganildi. Ularning Fuqarolik kodeksi hamda Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonun bilan aloqasi tizimli tahlil orqali baholandi. Amaliy material sifatida Raqobat qo‘mitasining 2025 va 2026-yillarda e’lon qilingan qarorlari va statistikasi olindi. Qiyosiy tahlil uchun Yevropa Ittifoqi, AQSh, Rossiya va Xitoyning platforma javobgarligiga oid sud ishlari tanlandi.

Qonunning amaldagi tahririda elektron tijorat operatorlari qatoriga telekommunikatsiya provayderlari, elektron savdo maydonchalari operatorlari, to‘lov xizmatlarini ko‘rsatuvchilar va elektron hujjatlarni saqlovchilar kiritilgan. 12-moddaning to‘rtinchi qismi ularni hujjatlar mazmuni bilan bog‘liq huquqiy oqibatlar uchun javobgarlikdan ozod qiladi. O‘RQ-1173-son Qonun bu qismga tegmagan holda moddaga yangi oltinchi qismni qo‘shdi: “Sotuvchi tomonidan xaridorning qonuniy talablarini qanoatlantirish imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, basharti shartnoma shartlarida yoki qonunchilikda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, elektron tijorat operatori xaridor oldida subsidiar javobgar bo‘ladi”. Fuqarolik kodeksining 329-moddasiga ko‘ra bunday javobgarlikda kreditor avval asosiy qarzdorga murojaat qiladi va u rad etgan yoki oqilona muddatda javob bermagan taqdirdagina subsidiar javobgarga talab qo‘yadi[9]. Qonunda bu muddat belgilanmagan. Vakolatli agentlik vakilining izohiga ko‘ra u platformaning shartnoma va ofertalarida ham belgilanishi mumkin[10].

Qonunosti hujjatlarida ham bu bo‘shliqni to‘ldiruvchi qoidalar hozirda mavjud emas. Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-avgustdagi 249-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 15-bandiga ko‘ra axborot vositachisi o‘z tizimi orqali tuzilgan shartnomalar bo‘yicha uchinchi shaxslar oldida javob bermaydi, faqat o‘zining ommaviy shartnomasi yoki qoidalarida boshqacha belgilangan hol bundan mustasno. Shu Nizomning 5-bandi esa operatorga bitim tarafi bo‘lishni taqiqlaydi[11]. 2016-yil 2-iyundagi 185-son qaror bilan tasdiqlangan qoidalarda ham axborot vositachisi hujjatlarning huquqiy oqibatlari uchun javob bermasligi aytilgan[12]. Ikkala hujjat 2004-yilgi eski qonun asosida qabul qilingan va 2022-yilgi qonun talabiga qaramay unga hali moslashtirilmagan.

---

[8] Legal status of the operator of e-commerce platform in China // Правоведение. 2024. DOI: 10.21638/spbu25.2024.211. URL: https://pravovedenie.spbu.ru/article/view/19243

[9] O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, 329-modda. URL: https://lex.uz/docs/-111189

[10] НДС для зарубежных площадок, отдельные счета для продавцов: что меняет новый закон об e-commerce // UzDaily.uz. 2026. URL: https://www.uzdaily.uz/ru/nds-dlia-zarubezhnykh-ploshchadok-otdelnye-scheta-dlia- prodavtsov-chto-meniaet-novyi-zakon-ob-e-commerce/

[11] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.08.2016 yildagi 249-son qarori bilan tasdiqlangan Nizom, 5, 15-bandlar. URL: https://lex.uz/docs/-3014802

[12] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.06.2016 yildagi 185-son qarori bilan tasdiqlangan Qoidalar. URL: https://lex.uz/acts/2973942

Raqobat qo‘mitasining amaliyotida iste’molchi huquqlarini cheklovchi oferta shartlariga qarshi asosiy vosita Iste’molchilar huquqlari to‘g‘risidagi qonunning 21-moddasi bo‘lib qolmoqda. Bu modda iste’molchi huquqlarini cheklaydigan va qonunchilikka zid bo‘lgan shartlarni haqiqiy emas deb hisoblaydi[13]. 2025-yil may oyida Qo‘mita shu asosda Ucell ofertasidagi javobgarlikni faqat to‘g‘ridan-to‘g‘ri zarar bilan cheklovchi bandni o‘zgartirishni talab qilgan va kompaniya ofertaga ma’naviy zarar uchun javobgarlikni kiritgan[14]. 2026-yil martida esa Uzum Tezkor ofertasida 26 ta, BeeMarket ofertasida 18 ta qonunbuzilish aniqlanib, ular Qo‘mita ko‘rsatmasidan keyin tuzatilgan. Bu kamchiliklar asosan nuqsonli tovarni almashtirish va pulni qaytarishni rad etish bilan bog‘liq bo‘lgan[15].

Xaridorlarning shikoyatlari muammoning bir qismi sotuvchidan emas, platformaning o‘z faoliyatidan kelib chiqayotganini ko‘rsatadi. 2026-yil yanvarida Qo‘mita o‘rgangan Uzum Market ishlarida xaridor noto‘g‘ri ko‘rsatilgan narx ma’lumoti tufayli to‘lagan noutbuki o‘rniga boshqa tovar olgan, nogironligi bo‘lgan fuqaroning buyurtmasi bir necha marta izohsiz bekor qilingan, yana bir xaridordan bitta xarid uchun ikki marta pul yechilgan[16]. Platformaning o‘zi sotuvchi sifatida ishtirok etgan holatlar ham bor. Uzum Market o‘z buyurtmasi bilan ishlab chiqarilgan “Oila Tanlovi” moyini noto‘g‘ri yaroqlilik muddati bilan sotgani uchun Qo‘mita 145 mingga yaqin mahsulotni qaytarib olish yoki xaridorlarga 1,6 mlrd so‘mdan ortiq mablag‘ni qaytarishni buyurgan va bu qaror sudlarda o‘z kuchida qolgan[17]. Oddiy xaridor esa ilovada platformaning o‘z tovarini boshqa sotuvchilarnikidan ajrata olmaydi. Hatto ommabop qo‘llanmalarda ham sotuvchini buyurtma tafsilotlari yoki elektron chekdan aniqlash tavsiya qilinadi[18]. Qo‘mita 2026-yil oktabrida “onlayn platformalar javobgarligini oshirish”ni tizimli muammolar qatorida ko‘rsatgani bejiz emas[19].

Xorijiy sud amaliyoti platforma o‘zi tuzgan shartlar orqali javobgarlikdan qutula olmasligini va uning faol roli javobgarlikni kuchaytirishini ko‘rsatadi. Yevropa Ittifoqi Sudi Louboutin va Amazon ishida platforma o‘z takliflari bilan uchinchi shaxslar takliflarini bir xil ko‘rinishda joylashtirib, ularni saqlash va yetkazib berish xizmatini ko‘rsatsa, xaridorda tovarni

---

[13] “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 26.04.1996, 221-I, 21-modda. URL: https://lex.uz/docs/-4704

[14] Raqobat qo‘mitasi Ucell kompaniyasiga ma’naviy zarar uchun javobgarlikni ofertaga kiritish majburiyatini yukladi // Gazeta.uz. 27.05.2025. URL: https://www.gazeta.uz/oz/2025/05/27/ucell/

[15] Raqobat qo‘mitasi tomonidan elektron tijoratning ommaviy oferta shartnomalarida 45 ta holatda aniqlangan kamchiliklar qonun talablariga muvofiqlashtirildi // Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi. 25.03.2026. URL: https://raqobat.gov.uz/uz/raqobat-qomitasi-tomonidan-elektron-tijoratning- ommaviy-oferta-shartnomalarida-45-ta-holatda-aniqlangan-kamchiliklar-qonun-talablariga-muvofiqlashtirildi/

[16] Более 100 жалоб на Uzum Market: Комитет по конкуренции рассказал, чем недовольны покупатели // Vaib.uz. 31.01.2026. URL: https://vaib.uz/2026/01/31/bolee-100-zhalob-na-uzum-market-komitet-po-konkurenczii- rasskazal-chem-nedovolny-pokupateli/

[17] Raqobat qo‘mitasining Uzum’dan 1,6 mlrd so‘mdan ortiq mablag‘ni undirish qarori o‘z kuchida qoldi // Gazeta.uz. 11.09.2025. URL: https://www.gazeta.uz/oz/2025/09/11/uzum-market/

[18] Qanday qilib onlayn olingan tovarni qaytarish mumkin? // Kun.uz. 26.10.2026. URL: https://kun.uz/news/2026/10/26/qanday-qilib-onlayn-olingan-tovarni-qaytaris-mumkin

[19] Половина жалоб на электронную коммерцию связана с Uzum: Комитет по конкуренции // Spot.uz. 06.10.2026. URL: https://www.spot.uz/ru/2026/10/06/e-commerce-complaints

platformaning o‘zi sotayotgandek taassurot paydo bo‘lishi mumkinligini qayd etgan[20]. Raqamli xizmatlar to‘g‘risidagi regulyatsiya ham bunday hollarda platformani iste’molchi oldidagi javobgarlikdan ozod qilmaydi[21]. Kaliforniya apellyatsiya sudi Bolger va Amazon ishida uchinchi shaxs sotgan va portlab ketgan noutbuk batareyasi uchun Amazonni javobgar deb topgan, chunki u tovarni o‘z omborida saqlagan, qadoqlagan va jo‘natgan[22]. Rossiya Oliy sudi 2026-yilda AliExpress orqali xorijiy sotuvchidan 320 ming rublga sotib olingan nosoz motorli suv taxtasi bo‘yicha ishni ko‘rib chiqqan. Operator foydalanuvchi kelishuviga tayanib o‘zini faqat agent deb ko‘rsatgan va quyi sudlar unga qo‘shilgan, ammo Oliy sud sotuvchi haqidagi ma’lumot faqat ingliz va xitoy tillarida berilganiga e’tibor qaratib, ishni qayta ko‘rishga yuborgan[23]. Bu yondashuv agregatorning noto‘g‘ri yoki noto‘liq axborot uchun javobgarligi va iste’molchi huquqlarini cheklovchi shartlarning ahamiyatsizligi to‘g‘risidagi qonun normalariga tayanadi[24]. Xitoyda platforma sotuvchining haqiqiy nomi, manzili va aloqa ma’lumotlarini bera olmasa, iste’molchi talabni to‘g‘ridan-to‘g‘ri unga qo‘yadi, platforma esa keyin sotuvchidan regress tartibida undiradi. Standart shartlar orqali javobgarlikdan ozod bo‘lish u yerda ham taqiqlangan[25]. Qozog‘istonda marketpleyslarni sotuvchilar bilan solidar javobgar qilish taklif qilinmoqda[26].

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, 12-moddaning yangi tahriridagi asosiy kamchilik javobgarlikning subsidiar turida emas, balki uning dispozitiv shaklida. Xaridor platformada ro‘yxatdan o‘tganda operator tayyorlagan ofertaga qo‘shiladi va uning shartlarini muhokama qila olmaydi. Agar ofertada operator sotuvchi sotgan tovar uchun javob bermasligi yozilgan bo‘lsa, 12-dekabrdan keyin bu band qonunga mos bo‘ladi, chunki oltinchi qismning o‘zi shartnomada boshqacha tartib belgilashga ruxsat beradi. Natijada 21-modda bu bandga nisbatan ishlamaydi. Ucell ishida Qo‘mita ofertani o‘zgartira oldi, chunki band qonunga zid edi. Marketpleys ofertasidagi o‘xshash band bo‘yicha esa bunday asos qolmaydi. Fikrimizcha, maxsus qonunning bunday dispozitiv qoidasi umumiy qonundagi himoya mexanizmini amalda chetlab o‘tadi.

Bunga qarshi shartnoma erkinligi va xaridorning boshqa platformani tanlash imkoniyatini dalil qilib keltirish mumkin. Biroq ommaviy oferta qo‘shilish shartnomasi bo‘lib, uning shartlari bitta taraf tomonidan belgilanadi. Bunday sharoitda tanlov erkinligi iste’molchi uchun

---

[20] Judgment of the Court (Grand Chamber) of 22 December 2022, Christian Louboutin v Amazon Europe Core and Others, Joined Cases C-148/21 and C-184/21, ECLI:EU:C:2022:1016. URL: https://www.wipo.int/wipolex/en/judgments/details/1703

[21] Regulation (EU) 2022/2065 (Digital Services Act), 6-moddaning 3-bandi. URL: https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2022/2065/oj

[22] Bolger v. Amazon.com, LLC, 53 Cal.App.5th 431 (Cal. Ct. App. 2020). URL: https://law.justia.com/cases/california/court-of-appeal/2020/d075738.html

[23] ВС защитил права потребителя в споре с маркетплейсом (дело № 18-КГ26-72-К4) // Pravo.ru. 17.07.2026. URL: https://pravo.ru/news/264827/

[24] Закон РФ от 07.02.1992 № 2300-1 «О защите прав потребителей», ст. 12 (п. 2.1), ст. 16. URL: https://www.zakonrf.info/zozpp/16/

[25] Law of the PRC on the Protection of Consumer Rights and Interests (25.10.2013 yildagi tahrir), 26, 44-moddalar. URL: https://www.chinalawtranslate.com/en/consumer-protection-law-including-2013-amendments/

[26] Kazakhstan to Ban Untrustworthy Sellers from E-Commerce Marketplaces // The Times of Central Asia. 25.11.2025. URL: https://timesca.com/kazakhstan-to-ban-untrustworthy-sellers-from-e-commerce-marketplaces/

real himoya vositasi bo‘la olmaydi. Vazirlar Mahkamasining 249-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 15-bandi ham xuddi shu mantiqqa asoslangan. U qonunga zid emas, aksincha, uni to‘ldirib turadi va sudlar ikkala normani birga qo‘llab, ofertadagi istisno bandini qonuniy deb topishi ehtimoli yuqori.

Normaning boshqa kamchiliklari ham amaliyotda sezilishi mumkin. Javobgar shaxs sifatida umumiy “elektron tijorat operatori” ko‘rsatilgan, holbuki bu tushuncha to‘lov provayderlari va telekommunikatsiya operatorlarini ham o‘z ichiga oladi. Xaridor oldida javob berishi kerak bo‘lgan shaxs esa bitim tuzilgan platforma yoki buyurtmalar agregatorining operatoridir. Subsidiar javobgarlik qachon yuzaga kelishi ham aniq emas. Sotuvchining rad etishi, javob bermasligi, tugatilishi yoki shaxsini aniqlab bo‘lmasligi qonunda alohida ko‘rsatilmagan va agentlik vakili aytganidek, bu masala ham ofertaga havola qilinmoqda.

Shikoyatlar tahlili subsidiar modelning yana bir chegarasini ko‘rsatadi. Buyurtmani bekor qilish, to‘lovni qabul qilish va tovar haqidagi ma’lumotni ko‘rsatish platforma tizimida amalga oshiriladi. Bunday hollarda operatorni faqat sotuvchidan keyin javob berishga majbur qilish adolatdan emas. Bolger va Louboutin ishlarida ham sudlar platformaning tovar aylanishidagi faol rolini hal qiluvchi omil deb hisoblagan. 12-moddaning to‘rtinchi qismidagi umumiy ozod qilish qoidasi esa operatorga o‘z harakatlari uchun ham javobgarlikdan qochish imkonini qoldiradi. “Oila Tanlovi” ishi va AliExpress ishi yana bir narsani ko‘rsatadi: xaridor kimdan xarid qilayotganini aniq bilmasa, uning huquqini himoya qilish ancha qiyinlashadi. Shu sababli sotuvchi haqidagi ma’lumotni tushunarli shaklda ko‘rsatish operatorning majburiyati bo‘lishi kerak.

Shu bilan birga Xitoy va Qozog‘istondagi kabi keng solidar javobgarlikka o‘tishni ham to‘g‘ri deb bo‘lmaydi. Bunday yechim platformalar xarajatini keskin oshirib, kichik sotuvchilarning bozorga kirishini qiyinlashtirishi mumkin. Subsidiar model sotuvchini asosiy javobgar sifatida saqlab qoladi va bizning sharoitimizga mos keladi. Faqat u imperativ bo‘lishi, platformaning o‘z aybi bilan bog‘liq hollarda esa solidar javobgarlik bilan to‘ldirilishi kerak.

O‘RQ-1173-son Qonun bilan joriy etilgan subsidiar javobgarlik to‘g‘ri yo‘nalishdagi qadam, lekin “shartnoma shartlarida boshqacha tartib” belgilash imkoniyati uni amalda operatorning ixtiyoriga topshiradi. Qonunosti hujjatlari bu kamchilikni to‘ldirmaydi, aksincha, uni mustahkamlaydi. Raqobat qo‘mitasi ofertalardagi adolatsiz shartlarni hozirgacha 21-modda orqali tuzatib kelgan bo‘lsa, 12-dekabrdan keyin marketpleyslar bo‘yicha bu imkoniyatdan mahrum bo‘ladi.

Shu munosabat bilan 12-moddaning oltinchi qismidan “shartnoma shartlarida” degan so‘zlarni chiqarib tashlash va moddani operatorning javobgarligini istisno qiladigan yoki cheklaydigan oferta va foydalanish qoidalari shartlari haqiqiy emasligini belgilovchi qoida bilan to‘ldirish taklif etiladi. Bunda xaridor talabini qanoatlantirgan operatorga sotuvchiga nisbatan regress huquqi berilishi lozim. Subsidiar javobgarlik subyekti sifatida bitim tuzilgan elektron savdo platformasi yoki buyurtmalar agregatorining operatori ko‘rsatilishi, javobgarlik esa sotuvchi talabni belgilangan muddatda qanoatlantirmagan, javob bermagan, tugatilgan yoki

operator sotuvchi haqidagi ma’lumotni bera olmagan hollarda yuzaga kelishi maqsadga muvofiq.

Operator xavfli tovar haqida bilib turib chora koʻrmagan, tovar haqidagi axborotni oʻzi oʻzgartirgan yoki tovarni xaridor uni operatorning oʻzi sotyapti deb oʻylaydigan tarzda koʻrsatgan hollarda u sotuvchi bilan solidar javob berishi kerak. 12-moddaning toʻrtinchi qismiga ham shu hollar uchun istisno qoʻshilishi lozim. 13-moddada esa operatorga har bir tovar sahifasida sotuvchining nomi, manzili va aloqa ma’lumotlarini hamda tovarni uchinchi shaxs sotayotganini tushunarli tilda koʻrsatish majburiyati belgilanishi kerak. Vazirlar Mahkamasining 249-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 5 va 15-bandlari hamda 185-son qaror bilan tasdiqlangan qoidalar ham qonunga moslashtirilishi zarur.

Bu oʻzgartishlar sotuvchini asosiy javobgar sifatida qoldiradi va platformalarga ortiqcha yuk tushirmaydi, xaridor esa sotuvchi topilmagan holda ham kimga talab qoʻyishini aniq biladi. Keyingi tadqiqotlarda OʻRQ-1173-son Qonun kuchga kirgandan soʻng yirik platformalar ofertalarida yuz beradigan oʻzgarishlarni va shakllanadigan sud amaliyotini oʻrganish foydali boʻladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (21.12.1995). URL: https://lex.uz/docs/-111189
2. “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 26.04.1996, 221-I. URL: https://lex.uz/docs/-4704
3. “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 29.09.2022, O‘RQ-792. URL: https://lex.uz/docs/6213382
4. O‘zbekiston Respublikasining 10.09.2026 yildagi O‘RQ-1173-son Qonuni. URL: https://lex.uz/docs/8468724
5. Vazirlar Mahkamasining 02.08.2016 yildagi 249-son qarori. URL: https://lex.uz/docs/-3014802
6. Vazirlar Mahkamasining 02.06.2016 yildagi 185-son qarori. URL: https://lex.uz/acts/2973942
7. Розметова А.А. Legal nature of digital commerce // Oriens. С. 644-654.
8. Зубарев Н.С. Федеральный закон «Об отдельных вопросах регулирования платформенной экономики в Российской Федерации» как ответ на вызовы цифровизации торговли // Вестник Университета имени О.Е. Кутафина (МГЮА). 2026. № 2. С. 156-163.
9. Legal status of the operator of e-commerce platform in China // Правоведение. 2024. DOI: 10.21638/spbu25.2024.211.
10. Regulation (EU) 2022/2065 (Digital Services Act). URL: https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2022/2065/oj
11. Joined Cases C-148/21 and C-184/21, Louboutin v Amazon, ECLI:EU:C:2022:1016.
12. Bolger v. Amazon.com, LLC, 53 Cal.App.5th 431 (2020).
13. Закон РФ от 07.02.1992 № 2300-1 «О защите прав потребителей».
14. Law of the PRC on the Protection of Consumer Rights and Interests (2013).